



EZGU FIKR, EZGU SO'Z, EZGU AMAL!

2021-YIL – YOSHLARNI
QO'LLAB-QUVVATLASH VA AHOLI
SALOMATLIGINI MUSTAHKAMILASH YILI

ILM SARCHASHMALARI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETINING
ILMIY-METODIK JURNALI



2020-12

Bagbekova Laylo Kadirbergenovna. Masofaviy ta'lrim tizimi o'qitishning zamonaviy usuli sifatida.....	176
Xamidova Muyassar. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashda didaktik o'yinlardan foydalanish yo'llari.....	179
Ochilova Nasiba Sotkinovna, Kodirov Sobirjon Solikjon yugli. Toreticheskie i prakticheskie osobennosti obucheniya studentov leksike anglijskogo jazyka v nejazykovyx vuzax.....	181
Abdiyev Akmal Urakbayevich. The Use of Differentiated Approach in Teaching English in Andragogy.....	184
Sabitova Iroda Srajiddinovna. The Importance of Using Non-verbal Communication in EFL (English as a Foreign Language) Classrooms.....	189

ILMIY AHBOROT

Baliyeva Zainab Omombaevna. "Koronavirus" Pandemiyasi davrida xæöt faoliyati xæfesizliginинг аҳамияти.....	192
Kadirov Kuvondik Aйитбаевич. Янги Ўзбекистон: Oлий таълим тизимида foявий тарбия ишлари менежментини ривожлантириш ресурслари.....	194
Xudaykulova Latifa Avazovna, Melnikova Dilniza Usmonovna. Bolalarni tarbiyasida bobolap allassining ўрни va аҳамияти.....	197
To'uchiev Abdunabi Xudoiberdievich. Yozuvchining topganlari va tilaklari.....	199
Sayfullayev Anvar Islamovich. Tarjimon faoliyati haqida.....	201
Mustanova Shaxnoza Rustamovna. Simxron tarjima jarayoni haqida.....	205
Ўсарова Нилуфар Якубовна, Назарова Раъно Рахимовна. Makolplarni tarjima қилиши muammolari.....	209
Zulfiya Marufova. Sharқона "Гўзаллик" konseptini юзага чиқаришда ilohiy timsollarlarning roli.....	212
Mirzakarimova Mahliёhon Madaminjonovna. Umumtaъlim fanlariни тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими: тушунча va tamoyilllar.....	215
O'rəzəva Iqbol Abdikarimovna. Boy berilayotgan xaxina.....	218
Norchaev Ravshan Toшtemirovich. Tasviriy sanъatda chizmatasvirning rivojlaniши bosqichlari.....	221
Xamidov Lutfullo Pайzullaevich. Bank soҳasini atama tizimining umumlisosiniй tasnifi.....	226
Ismanlova Laylo Xondamirovna. Slagannining milliy turistik reklamadagi аҳамиятига donir....	230
Xamdamov Ramzbek Madaminjonovich, Usmonov Yorqinbek Muhtorjon o'g'li, Atadxo'jayev Tohirjon. Lingvistik shevalar kontinuumi va uning til o'rgatishdagi аҳамияти.....	233
Boltaev Farroph Farkhadovich. K voprosu o vzaimosvaziya jazyka i myshleniya.....	235
Qodirova Dilfuza Alisherovna, Nazarova Gulbahor Azimjon qizi, Abdullayeva Dilafruz Mansurova. The Comparative Analysis on the Translation of English Slang Words.....	238
Musurmankulova Madina Nosirovna. Semantics of the Term "Competence" in Pedagogy and Development of Integrative Knowledge on Comparative-dialectological Competence of Future Teachers of the Russian Language.....	241

жойларга келин бўлиб узатилиши, ўри бола бўлса, ўзи севган ёри билан бахти турмуш кечиришини истайди. Неваранинг бахту икболи ҳақидаги ана шундай ойдин орзулар Олтинсой туманинг Хўжандек жамоа кўжалигидаги Оқун кишлогидаги яшовчи Ҳалим бобо Жўраевдан 2005 йил 22 авгуистда ёзб олинган кўйидаги «хўйя»нинг моснатини ташкил этади:

Оёққинаси майшишиб, ҳўй-ё, ҳўй-ё, ҳўй-ё,
Моллар келсин бачама, ҳўй-ё, ҳўй-ё, ҳўй-ё,
Суаликхинаси ширкитлаб, ҳўй-ё, ҳўй-ё, ҳўй-ё,
Хўялар келсин қизима, ҳўй-ё, ҳўй-ё, ҳўй-ё.
Кўнгироқлари шилдираб, ҳўй-ё, ҳўй-ё, ҳўй-ё,
Кўчкорлар келсин қизима, ҳўй-ё, ҳўй-ё, ҳўй-ё.
Ҳайит куни ҳўржин тўла, ҳўй-ё, ҳўй-ё, ҳўй-ё,
Мевалар келсин қизима, ҳўй-ё, ҳўй-ё, ҳўй-ё.

Сурхон воҳаси ахолисининг удумига кўра, никоҳ тўйи тизимида келин бўлаётган киз оиласига куёв тарафдан «тўйкис» юбориш анъанаси мажкуд бўлган. Юкоридаги «хўйя» матнида бобо ўз набираси келин бўлиб узатилаётгандан устида кўп совға-саломлар ортигланлигидан «оёқлари майшган мояллар», «кўнгироғи шилдираган семиз кўйлар»га инят билдиримоқда. Одатда, келинникига юборилаётган кўй-кўчкорларни битта ишга боғлаб, кўшок килинган ва улардан бирининг бўйнига кўнгироқ осиб, бошқаларининг шохи ва бўйнига оқ рўмол боғлаб кўйилган. Юкоридаги матнида никоҳ тўйи билан боғлик янга бир мухим удум – унаштирилган йигитларнинг ўз қайтикларига ҳайитлик юбориши одати ҳам акс эттирилган. «ҳайит куни ҳўржин тўла мевалар келиши» – ана шу кадимий удумининг поэтик талқинидир.

Сурхон воҳасида кадимдан дехкончилик анъаналари ҳам шаклланганлиги боис айрим «хўйя»лар матнида шу меҳнат тури билан талқинларни ҳам учратамиз. Денов туманидаги Хайробод кишлогидан ёзб олинган кўйидаги «хўйя»да қўш ҳайдаб дехкончилик киладиган бобонинг кечинмалар «дехкон меҳнатига эш бўлган» кўкиз образининг таърифи воситасида баён этилади:

Ҳўёлло буваси қашқа, Ӯ-ҳўй, Ӯ-ҳўй,
Ҳўкизи қирағи мошга, Ӯ-ҳўй, Ӯ-ҳўй,
Қўшга шлдам бўлмаса-ё, Ӯ-ҳўй, Ӯ-ҳўй,
Қайла қилингетар гўштга, Ӯ-ҳўй, Ӯ-ҳўй.
Терисини сийириб-а, Ӯ-ҳўй, Ӯ-ҳўй,
Личинглар кўн көвушга, Ӯ-ҳўй, Ӯ-ҳўй,
Бир жут беринг бувшишга, Ӯ-ҳўй, Ӯ-ҳўй.
Қолгани эду хешига, Ӯ-ҳўй, Ӯ-ҳўй.

Бу матнида ҳар бир мисрадан кейин қайтарилувчи анъанавий поэтик тақрор «Ӯ-ҳўй, Ӯ-ҳўй» шаклида бўлиб, воҳанинг бошқа худудларидан ёзб олинган «хўйя» матниларидаги бадний тақрорлардан структуруал жиҳатдан фарқланиб туради. Демак,

♦биринчидан, «хўйя» – боболар томонидан икро этиладиган алла намунаси бўлиб, бу жанр факаттинг Сурхон воҳасида истиқомат киладиган ахоли орасида оммалашганлиги ва ҳозирги кунга қадар ўзининг ижрочилик анъаналарини саклаб келаётганлиги билан характерланади;

♦иккинчидан, шеърий тузилиши саккиз ҳижоли бармоқ вазнидаги поэтик курилма ҳолида оммалашганлиги, мисраларнинг, асосан, «а-а» тарзидаги коғияланиши, икро жараёнида ҳар бир мисрадан кейин «хўйя болам, ҳўйя-ей», «Ӯ-ҳўй, Ӯ-ҳўй», «ҳўй-ё, ҳўй-ё, ҳўй-ё», «ҳўй-ей, ҳўй-ей, ҳўйя» сингари анъанавий поэтик тақрорларнинг қайтарилиб туриши «хўйя»ларнинг фольклор жанри сифатидаги етакчи коссаларини ташкил этади.

Сурхон воҳаси ахолиси ўзининг табиий, тарихий ва маданий қадриятларига кучли хурмат ва зътиқоди туфайли жуда кўп кадимий маросимларни, урф-одатларни, шунингдек, расм-руsumларни бажариш чорига икро этиладиган кадимий кўшикларни «постфольклор» ёки «замонавий фольклор» шаклида бўлса-да, ҳозиргача саклаб келмоқда.

To‘ychiev Abdunabi Xudoyberdievich (GulDU tayanch doktoranti)
YOZUVCHINING TOPGANLARI VA TILAKLARI

Annotatsiya. Yurtimizda O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad tavalludining 100 yilligi keng nishonlanmoqda. Adib murakkab davrda yashadi, ibratli umr kechirdi. Hayoti, ijodi bilan keyingi davr adabiy jarayoniga ham o‘z ijobiylarini ta’sirini o’tkazdi. Ushbu maqolada adib faoli-

yatining bir qirrasi – yosh ijodkorlarga bo'lgan e'tibori atoqli adib Nurali Qobul misolida yoritilgan.

Аннотация. 100-летие со дня рождения героя Узбекистана, народного писателя Узбекистана Саида Ахмада широко отмечается в нашей стране. Писатель жил в трудный период, жил образцовой жизнью. Его жизнь и творчество оказали положительное влияние на литературный процесс позднего периода. В этой статье освещается один аспект карьеры писателя – его внимание на молодых авторов – на примере известного писателя Нуралы Кабула.

Annotation. The 100th anniversary of the birth of the hero of Uzbekistan, People's Writer of Uzbekistan Said Ahmad is widely celebrated in our country. The writer lived in a difficult period, lived an exemplary life. His life and work had a positive impact on the literary process of the later period. This article highlights one aspect of the writer's career – his focus on young creators – with the example of the famous writer Nurali Kabul.

Kalit so'zlar: izlohot, yozuvchi, adabiyot, adabiy meros, eschkiemar, izdosh, ijodiy evolutsiya.

Ключевые слова: реформа, писатель, литература, литературное наследие, варан, последователь, теорическая эволюция.

Key words: reform, writer, literature, literary heritage, varan, follower, creative evolution.

So'nggi yillardagi jamiyatimizdagi islohotlar, ijtimoiy-iqtisidiy, ma'naviy-axloqiy, siyosiy hayot-dagi o'zgarishlar jamiyat a'zolari tafakkurida ham o'zgarishlarga olib keldi. Jamiyatning rivojlanish darajasi jamiyat a'zolaring ma'naviy-intellektual saviyasi, madaniy-axloqiy qiyofasiga ko'p jihatdan bog'liqdır. Jamiyat a'zolari ma'naviyatini shakllantirishda esa adabiyot beqiyos imkoniyatga ega.

Davr o'zgarishlarini his etish, voqe-a-hodisalarini haqqoniy ko'rsatish, barcha murakkabliklar, ziddiyatlar, insonning rang-barang ichki dunyosi, kurashi, intilishlari, quvonchu ixtirolarini tahlil etish adabiy olamda doimo dolzarbligicha qolmoqda. Bugungi kunda yaratilgan va yaratilayotgan asarlarning mo'hiyatini o'rganish va tadqiq etish muhim vazifalardan biridir. Jumladan, o'zbek adabiyotshunosligida Said Ahmad ijodi ko'p va xo'p o'rganilgan. Ijokordan katta hajmdagi yuqori saviyali adabiy meros qoldi. Yozuvchi ijodini xalqimiz sevib o'qimoqda, ijodi ko'plab adabiy izlanishlarga asos bo'lgan. Shunday bo'lsada, o'zbek nasrida Said Ahmad ijodining o'rni, asarlarining yuzaga kelish omillari, rivojlanish jarayonlari, badiyatini tadqiq qilish, uslub va mahorat masalasi bilan bog'liq muammolar tizimli ravishda yaxlit monografik keng planda o'rganish zarurati mavjud. Said Ahmad asarlari badiiy xususiyatlari bilan bog'liq muammolarning monografik planda o'rganilishi o'zbek adabiyoti ilmida alohida zhamiyat kasb etishi, tabii.

Said Ahmad asarlari bilan adabiyot rivoji va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shgan ulkan ijodkordir. Said Ahmad dan har biri alohida o'rganishga arziyidigan romanlari, hikoya va hajviyalari, dramaturgiysi, publisistik ocherklari, xotiralari adabiy meros bo'lib qoldi. Ziddiyatli davrda yashagan adibning murakkab hayotini o'rganar ekanimiz, bir tanada ikki jon yashaganiga guvoh bo'lamic, go'yo. Goho bir inson bolasining shuncha qiyinchilikka qarshi turganiga hayron qolib, sabru irodasiga lol qolamiz. Goho hayotidagi ayrim yumorga boy voqealar va asarlardagi ayrim epizodlarida beixtiyor kulamiz.

Adib ijodida bir turkum asarlar ham borki, bu asarlarda uning adabiy hayotni teranlik bilan kuzatgani, hali ism-sharifi adabiy jamoatchilikka notanish bo'lgan yosh ijodkorga e'tibor, qayg'urishni ilg'ash mumkin. Bir niholning voyaga etuviga qadar qancha parvarish va mehr kerak bo'ladi. Bir ijodkor ijodining samarasini ro'yogba chiquviga qadar ham muhit va mehr kerak. Shu ma'noda, atoqli o'zbek yozuvchisi Nurali Qobul ijodini tadqiq qilish jarayonida bu mutanosiblikni sezgandek bo'laman. Nurali Qobul nominining adabiyot sahnida muqim o'rinn egallashida albatta, Said Ahmad singari ustoz adiblarning xizmatini ta'kidlab o'tish joiz.

Nurali Qobul juda erta adabiy jamoatchilik e'tiboriga tushdi. Dastlabki hikoya va qissalarini o'qigan Said Ahmad "Nurali bir nechta hikoya va qissalar kitobini nashr etdi. Adabiy tanqidchilik bu kitoblar to'g'risida iliq-issiq gaplar aytmoqda. Haqiqatdan ham uning kichik janrdagi asarlar o'ziga xos yangilik bo'ldi", deb e'tirof etadi.¹ Darhaqiqat, shu yili nashr etilgan "Tubsiz osmon" qissasi adabiy jarayonda jiddiy voqeasifatida baholandi, yozuvchiga katta shuhrat keltirdi. Moskvada deyarli uch yarim million nusxada nashr etilgan "Yunost" jurnalining 1981-yil 1-sonida chop etilgan "Nebo twoego detstva" qissasi uchun "Zelenogo listka – 81" mukofoti berildi. Shuningdek, sobiq Itifoq yozuvchilar uyushmasining 1981–1982-yilgi yosh ijodkorining eng yaxshi birinchi kitobi uchun beriladigan mukofotiga sazovor bo'ldi. "Tubsiz osmon" qissasining jurnal va kitob holdagi adadi o'n million nusxadan oshdi. Bu adabiyotimizda

¹ Nurali Qobul. Kechikkan turnalar. T., "Tafakkur", 2016, 227-bet.

bir asarning qisqa muddatda keng tarqalishi jihatidan kam uchraydigan hodisadir.

Nurali Qobulning "Salom, tog'lar!" qissasini¹ o'qiyotganimda yodimga "Ufq" triologiyasi tushdi. Har ikkala asarda ham echkiemar bilan bog'liq voqeа tafsiloti berilgan. Echkiemar bilan bog'liq epizod Said Ahmadning "Ufq" triologiyasi "Hijron kunlari" nomli ikkinchi kitobida uchraydi.² Naymandagi to'qayda Ikromjonning arqonlangan sigirini qo'ydan kattaroq echkemar (asarda shunday yozilgan) emayotgani, qo'rqib ketgan Nizomjonning orqaga tisirilgani, odam sharpasini sezib, uzun dumil bilan xas-cho'plamni to'zitib qamishlar orasiga kirib ketgan echkemar tasviri ustoz adib tomonidan me'yorida tasvirlangan.

Nurali Qobul ham hayotda o'zi eshitgan, ba'zan ko'rgan voqeа-hodisalarni asarga ustalik bilan bir epizodda singdirib yuborgan. Misol uchun, echkiemar voqeasini olaylik. Qissa da qo'li sovuq narsaga tegib, qo'rquvdan oyoq-qo'li qaltiragan Zulayho, echki elin xaltasida echkinining elinini so'rayotgan bir qarich keladigan ikkita echkiemar, ularni bitta-bittalab qizigan otashkurakda olib tashlayotgan Enaqiz xola, ag'anab ayanchli ma'rayotgan echki, og'zidan sut otilgancha sapchib yerga tushgan echkiemarlar tasvirini uchratish mumkin. Asar voqealar kechayotgan davda bunday voqealar bo'lishi tabiiy bir hol bo'lgan, lekin endi uni o'rnida samarali qo'llash yozuvchining mahoratini bildiradi. U "Salom, tog'lar!"ni yozganda yigirma to'rt yoshda edi. Yosh yozuvchining hayotni teranlik bilan kuzatgani, ilg'aganlarini mahorat bilan badiiylashtirgani tahsinga sazovor.

Yozuvchi hayotga qanchalik chuqur kirib borsa, hayot voqeа-hodisalarni yaxshi bilsa u yozgan badiiy asar ham shunchalik hayotiy bo'ladi (Sergey Obraztsov ta'kidlaganidek, "Chivinning yuvinishini kuzatmagan ijodkor ijodkor emas"). Balki, shu sabablidir, ustoz adib yosh yozuvchi ijodida aynan o'ziga xoslikni ta'kidlaydi: "Nurali ko'p mashq qiladi. Hikoyalarini erinmay qayta ishlaydi. Uning adabiyotimizga olib kirayotgan o'z mavzui bor. Tug'ilib o'sgan tog' qishlog'i kishilarining portretlarini mahorat bilan chizadi. Tabiat manzaralarini ilhom bilan tasvirlaydi. Nurali hikoyalari ixcham, tasvirga boy, o'qishli hikoyalardir. Ayniqsa, uning cho'ponlar, Jizzax tog'larini boyliklarini muhofaza qilayotgan ajoyib tabiatli kishilar haqidagi hikoyalari o'quvchida yaxshi taassurot qoldiradi".³

Said Ahmad hayotida uchratgan, hamnafas bo'lgan ijodkorlami "topganlarim" deb ataydi. Ibratlumri davomida xalqimizning ma'naviy yuksalishiga omil deb adabiyotni bildi. Adabiyotga befarq bo'l-madi, yosh ijodkorlami qo'llab-quvvatladidi. Said Ahmad Odil Yoqubov, Xudoyberdi To'xtaboyevlar bilan Nurali Qobulning O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasiga a'zo bo'lishi uchun tavsiyanoma beradi.

Biz Said Ahmad faoliyatini misolida so'z yuritgan ijodkorimiz Nurali Qobul ham adabiyotning katta oqimidan o'z o'rnini topdi. U adabiyotda o'z uslubini, o'z qiyofasini yaratadi. Bu davr jarayonida yozuvchining ijodiy evolutsiyasini kuzatishimiz mumkin. Nurali Qobul o'ttizdan oshiq hikoyasi, o'n ikki qissasi, ikki esesi, she'rlari, tarjimalari, publisistikasi, ocherklari, roman-monolog, yetti kitobdan iborat roman-pamfleti, "Temuriylar" epopeyasi turkumidagi o'n etti jilddan iborat romanlari bilan adabiyotimiz rivojiga hissa qo'shdi. Tarjimon sifatida G. Markesning "Tahholikning yuz yili" romani (A.Jo'rboev, T. Qahhor bilan hamkorlikda), Ch. Aytmatovning "Bolaligim" qissasini ona tilimizga o'girdi.

Adabiyotda "ijodiy bardavomlilik" degan bir tushuncha, bir so'z bor. Said Ahmadning 100 yilligi keng nishonlanayotgan yilda uning izdoshlari Nurali Qobul, Erkin A'zam, Usmon Azimlar ham muborak 70 yoshni qoralab qo'yishdi. Ustozlar e'tiborida bo'lgan nihollar azim chinorlarga aylanishdi. Yana qancha ijodkorlar uchun Said Ahmad yaratgan maktab ibrat maktabi bo'ldi. Albatta, bir maqolada hammasiga to'xtalish, fikr yuritish imkoniyatdan tashqari ish. Ularning har biri bir olam. Biz bugun bir ijodkor misolida umumiy bir nazar soldik, xolos. Muhimi, adibning samarali mehnati natijasida yaratilgan asarlari kitobxonlar qalbidan joy oldi. Ijod ahli uchun bundan ortiq baxt bo'lmasa kerak.

Sayfullayev Anvar Islamovich (ToshDO'TAU, PhD)
TARJIMON FAOLIYATI HAQIDA

Annotatsiya. Magolada tarjimon faoliyati haqida so'z yuritilib, konferensiya tarjimasini va tarjimon-ga qo'yiladigan umumiyl talablar, konferensiya tarjimasini konteksti va ketma-ket va bir vagtning o'zida tarjima qilishning texnik qiyinchiliklaridan tashqari, tarjimon turli xil kontekstlarda va juda ko'p mavzularda ishlash muammosi tahlil qilingan.

¹ Nurali Qobul. Johillik va qotillik. T., "IJOD-PRESS", 2017, 40-140-betlar.

² Said Ahmad. Ufq. T., G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1976, 441-442-betlar.

³ Xushboqq J. Yuragimning surati. T., "Yangi asr avlodii" nashriyoti, 2018, 173-bet.